

TOSHKENT VILOYATIDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xujamberdiyev Tulkin katta o'qituvchi

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya; Ushbu maqola Toshkent viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollarini o'rganish, turizmning barqaror o'sishi, tabiatni muhofaza qilish tashabbuslari va jamoatchilikni jalb qilish imkoniyatlarini yoritib berishga qaratilgan. O'zining tabiiy va madaniy boyliklaridan foydalangan holda, Toshkent viloyati o'zini mintaqadagi yetakchi ekoturizm yo'nalishi sifatida ko'rsatishi mumkin, bu esa mazmunli va ta'sirli tajribalar izlayotgan sayohatchilarni jalb qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, turizm, qonun, ekoturizm, kontsepsiya, sayyohlik, atrof-muhit, noyob hayvonot, tog', cho'qqi, o'simliklar.

Ko'hna va hamisha navqiron Toshkent vohasi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyodagi eng yirik mintaqalardan biri hisoblanadi. Qulay geografik joylashuvi, o'ziga xos fauna va florasi, iqlimi hamda yer osti boyliklari vohaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ko'chmanchi chorvachilik hamda o'troq dehqonchilik xo'jaliklari o'rtasida o'zaro iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq va madaniy aloqa lari markazi hamda Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan voha o'ziga xos tamaddun tarixiga ega [1].

Hozirgi paytda nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo bo'yicha turizm sohasi uncha katta mehnat sarfini talab etmaydigan, ammo serdaromad soha hisoblanadi. Mazkur soha o'ziga yarasha madaniyatni, etika, estetikani talab qilgan holda birmuncha jozibadorlikning tarafdori sanaladi.

Toshkent vohasining qadim va shonli tarixi to'g'risida antik hamda o'rta asrlarga oid yuzlab qo'rg'onlar, shaharchalar va me'morchilik yodgorliklari ma'lumot beradi[2]. O'ziga xos iqlimi, tabiati, boyliklari va tarixga ega Toshkent vohasi mamlakatda turizm

industriyasi salohiyatiga ko‘ra, yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ichki turizm bilan bir qatorda xorijiy sayyohlar sonini oshirish, mazkur sohadagi mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish bugungi kunda mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda jahon siyosiy maydonlaridagi voqealar, insonlar turmush tarzi va iqtisodiy ahvolidan yaxshilanishi turizm sohasining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Turizm sohasining iqtisodiy jihatidan tashqari uning ham ijtimoiy ham ma‘naviy jihatlarini alohida ta‘kidlab o‘tish darkor[3]. Ya‘ni iqtisodiy jihatdan mehnatning 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan ko‘p mehnat sarfi talab etadigan ba‘zi, masalan qurilish tarmog‘i kabilarga nisbatan kam mehnat evaziga daromad topish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy jihatdan esa mazkur sohada faoliyat yurituvchi xizmat ko‘rsatish xodimlari bir vaqtning o‘zida sayyohlarga xizmat ko‘rsatish bilan birgalikda mazkur soha mahsulotidan o‘zlari ham bahramand bo‘lishadi, bu esa o‘z navbatida inson umrining uzayishiga sabab bo‘ladi. Ma‘naviy jihatdan turizm sohasini rivojlantirish orqali ajdodlarimizdan meros bo‘lgan milliy qadriyatlarimiz timsoli sanalgan me‘moriy yodgorliklarimizni, bahavo tabiatimizni butun dunyoga ko‘z-ko‘z qilish yo‘li bilan mamlakatimizni dunyo xaritasidagi o‘rnini mustahkamlab, butun dunyoga tanitish imkoniyati yuzaga keladi.

Jahon turizmi industriyasiga yaqin kelajakda kirib kelgan Ekologik turizm tushunchasi o‘tgan asrning oxirlaridan boshlab paydo bo‘ldi.

Ekologik turizm - turizmning eng jozibali yo‘nalishlaridan biridir. Ekoturizm tushunchasi bizning kundalik hayotimizga nisbatan yaqinda kirib keldi[4]. Bu dam olishning o‘ziga xos turi bo‘lib, unda sayyohlar yovvoyi tabiat joylariga boradilar, o‘zining asl ko‘rinishida qolishga muvaffaq bo‘lgan hududlar bo‘ylab sayohat qiladilar, tabiiy yodgorliklarni ziyorat qiladilar va hokazo.

Ekologik turistning asosiy maqsadi tabiiy jarayonlarga jiddiy aralashmaslik va ularga zarar yetkazmaslik bilan birga atrof-muhitni bilish, u bilan iloji boricha yaqinroq birlashishdir.

Ekoturlarni tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ekoturlarni tashkil qiluvchi tashkilotlar tabiat va mahalliy atrof-muhitni muhofaza qilishga ko‘maklashishlari shart.
2. Barcha sayohatlar, ekskursiyalar va boshqa tadbirlar tabiatga, mahalliy aholining urf-odatlarini va an‘analariga ta‘sir qilmasligi kerak kerak.
3. Atrof-muhitga salbiy ta‘sirni minimallashtirish kerak.
4. Ekoturistning maqsadi, eng avvalo, ekologik ong va tarbiya bo‘lishi zarur.
5. Mahalliy aholini ekologik turizm faoliyatiga jalb etish majburiydir.

Bu ularga qo‘shimcha daromad keltirish va tabiatni muhofaza qilish uchun ekologik rag‘batni yaratishga qaratilgan. Iqtisodiyotga sezilarli moliyaviy daromad keltirishi mumkin bo‘lgan mazkur turizm turi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy muhitda sayohatni amalga oshirish, tabiiy hududlarni ularga ziyon yetkazmagan holda o‘rganish, tabiatning betakror, o‘ziga xos maftunkorligidan zavq olish maqsadida hududlarda sayohatni amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yaxshilanishiga ko‘maklashadi.

Inson omili orqali tabiat qo‘yniga sayohat, noyob hayvonot va o‘simliklar dunyosi bilan tanishish, tog‘ va cho‘qqilarni zabt etishdagi maroq hamda tabiat in‘om etgan mo‘jizalardan foydalanish, qushlarning turlarini o‘rganish, shuningdek tabiiy ko‘llar, buloqlar, sharsharalarni tomosha qilish bu ekoturizmdir[5].

Dam olish kunlari shahardan yiroq manzillarni izlagan sayyohlar Toshkent viloyatiga tashrif buyuradi. Mintaqa o‘zining turistik salohiyati bilan yuqori turuvchi hududlardan sanalib, purviqor tog‘lar, go‘zal tabiati hamda sof havosi bilan turistlarni jalb qiladi.

Bu yerda safari turizm uchun mo‘ljallangan yovoyi tabiat, shuningdek ko‘l va buloqlar mavjud. Eko turizm uchun mo‘ljallangan bu kabi hududlarni viloyatda ko‘plab sanash mumkin. Bo‘stonliq va Ohangaronning moviy tog‘lari, tabiat in‘om etgan tabiiy ko‘llari, jozibali tabiati xorijliklarni maftun etsa, Parkentning qir adirlaridagi takrorlanmas yashilliklari bahor-yoz fasllarida barchani o‘ziga jalb etishda davom etadi.

Umuman olganda, viloyatning ekoturizmi xususida soʻz borganda Oʻzbekistonning haqiqiy moʻjizasi hisoblanmishi borasida toʻxtalish joizdir. 1990 yilda tashkil etilgan ushbu bogʻ tizimiga Chatqol Davlat Biosfera qoʻriqxonasi, Burchmullo va Ohangaron oʻrmon xoʻjaliklari kiritilgandir.

Ugom-Chatqol Milliy Tabiat bogʻining maydoni 574600 gektarni tashkil etadi. Toshkent viloyatining- Boʻstonliq (455,8 ming ga), Parkent (42,1 ming ga) va Ohangaron (76.6 ming ga) tumanlarida joylashgan. Asosan togʻ, oʻrmon, yaylov, suv akvotoriyalari, sugʻoriladigan va lalmi yerlardan iborat. U Gʻarbiy Tyan-Shan togʻli hududlarida dengiz satxidan 800-4000 metrdan ortiq balandliklarni oʻz ichiga oladi. Marqaziy Osiyoda eng yirik milliy bogʻlardan hisoblanadi[6].

Milliy bogʻning ayrim tabiiy yodgorliklari va landshaftlari yaqin va uzoqdan tashrif buyuradigan sayyohlarni oʻziga jalb etadi, bunga togʻ tabiat manzaralari, togʻ koʻllari, sharsharalar, chiroyli gullaydigan oʻsimliklar, hayvonot dunyosi, suv omborlari, petrogliflar, tarixiy obidalar, archazorlar, qayinzorlar shular jumlasidandir.

Milliy bogʻ hududida 1800 ga yaqin oʻsimlik dunyosi oʻsib, undan 74 xili Oʻzbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan, shu jumladan, 8 xil lola turlari, Oʻrta Osiyo noki, Pskom piyozi, Abolin astragali, Eremuruslar, Boshqizilsoy gerani, Minkvid teziyumi, Yovvoyi sallagul va boshqalar mavjud.

230 ga yaqin hayvonot dunyosi turlari yashaydigan bogʻda, shundan 38 turi Oʻzbekiston va Xalqaro “Qizil kitob”lariga kiritilgan, shu jumladan: qor qoplani, oq tirnoqli Tyan-Shan qoʻngʻir ayigʻi, Menzbira sururi, Turkiston silovsini, kichik taqaburun, lochinlar, kumay, Chatqol shaytonbaligʻi, Turkiston laqqasi, kulja arvox kapalagi va boshqalar.

Davlat idoralari, turoperatorlar, mahalliy hamjamiyat va xalqaro manfaatdor tomonlar oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali Oʻzbekiston bu qiyinchiliklarni yengib oʻtishi va sayyohlar uchun ham foydali boʻlgan rivojlanayotgan ekoturizm sektorini yaratishi mumkin. Toshkent viloyatida ekoturizmning rivojlanishi mamlakatning tabiiy va madaniy boyliklarini namoyish etish, barqaror turizm

amaliyotini targ'ib qilish va mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash uchun qimmatli imkoniyat yaratadi. O'zining rang-barang landshaftlari, boy merosi va hamkorlik ruhidan foydalanish orqali Toshkent viloyati o'zini mintaqadagi yetakchi ekoturizm yo'nalishi sifatida ko'rsatishi va mas'uliyatli turizmni rivojlantirish yo'lidagi global sa'y-harakatlarga hissa qo'shishi mumkin. Sayohatchilar atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyat farovonligini birinchi o'ringa qo'yadigan mazmunli va o'ziga xos tajribalarni tobora ko'proq izlayaptilar, O'zbekiston ekoturizmning ilg'orligi mayoqiga aylanib, butun sanoat uchun ijobiy o'rnak ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari yorqin, bu mamlakatning tabiiy go'zalligi, madaniy boyligi va barqaror turizm amaliyotiga sodiqligi bilan bog'liq. Ushbu kuchli tomonlarga asoslanib, Toshkent viloyati o'zini mintaqadagi yetakchi ekoturizm yo'nalishi sifatida ko'rsatishi, ekologik jihatdan ongli sayohatchilarni jalb qilishi hamda tabiiy va madaniy merosini asrab-avaylashga hissa qo'shishi mumkin. Puxta rejalashtirish, hamkorlik va barqarorlikka e'tibor qaratgan holda, Toshkent viloyati ekoturizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish modeliga aylanish salohiyatiga ega va turizm o'sishini atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyat farovonligi bilan muvozanatlashga intilayotgan boshqa yo'nalishlarga o'rnak bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'stonliq - Toshkent vohasi javohiri [Matn] .- Toshkent: Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2023.- 128 b. Mualliflar: Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A.
2. Utayeva, Feruza Xolmamatovna O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi [Matn] : darslik / F. X. Utayeva . - Buxoro : Sadridin Salim Buxoriy" Durdon, 2021. - 188 b.
3. M.A. Mirzayev, M.T. Aliyeva. Turizm asoslari: O'g'uv go'llanma . – T.:TDIU, 2011. – 427 b.

4. Xaitboyev R Ekologik turizm.[Matn]: /R.Xaitboyev. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2018. — 248 b
5. Rajabova I.H. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari: O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: “ ” nashriyoti, 2021. – b.
6. Tuxliyev.I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.YE, Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O‘quvqo‘llanma – Samarqand: SamISI, 2010.